

AN'ANAVIY IJROCHILIKDA USTOZ-SHOGIRDLIK AN'ANALARI

Andijon davlat universiteti

Sport va san'at fakulteti

Musiqa san'ati kafedrası

Vokal ijrochiligi yo'nalishi o'qituvchisi

No'monov Iftixorjon Iqboljon og'li

Annotatsiya: Ustoz-shogird an'anasi yillar davomida shakllangan qadimiy qadriyatlarimizdan biridir. Mazkur maqolada ustoz-shogirdlik an'anasining qadimiyligi va uning yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati, an'anaviy ijrochilikda ustoz-shogirdlik an'alarining rivoji masalalariga e'tibor qaratildi. Maqolada o'zbek milliy va an'anaviy ijrochiligi san'ati hamda ustozlarimiz tamonidan yaratilgan asarlarni kelajak avlodga yetkazish masalari haqida so'z boradi.

Аннотация: Традиция учителя-ученика-одна из наших древних ценностей, сформировавшихся за эти годы. В данной статье было уделено внимание вопросам древности традиции наставничества и ее значимости для образования и воспитания молодежи, развития традиции наставничества в традиционном исполнительстве. В статье речь пойдет о узбекском национальном и традиционном исполнительском искусстве, а также о передаче произведений, созданных нашими мастерами, будущим поколениям.

Annotation: The master-disciple tradition is one of our ancient values that have been formed over the years. This article focused on the issues of the antiquity of the teacher-apprenticeship tradition and its importance in youth education, the development of the teacher-apprenticeship tradition in traditional performance. The article discusses the art of Uzbek national and traditional performance and the Masas of bringing the works created by our teachers to the future generation.

Kalit so'zlar: Musiqa, kompozitor, bastakor, an'anaviy ijrochilik, san'at, ustoz-shogird, sozanda, maktab, uslub.

Ключевые слова: Музыка, композитор, традиционное исполнение, искусство, учитель-ученик, музыкант, школа, стиль.

Keywords: Music, composer, variety, traditional performance, art, teacher-student, musician, school, style.

Mustaqillik yo'lida dadil borayotgan O'zbekistonning bugungi kunida yoshlarni kamolotga intilish ma'naviy qadriyatlarni tiklash va Vatanga sadoqat tuyg'ularini o'stirishda ulkan tadbirlar olib borilmoqda. O'zbek xalqning o'tgan ajdodlari tomonidan yaratilib meros bo'lib qolgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq orasidagi ustoz-shogird an'alarini ham kiritish mumkin. Bu nodir an'ana mamlakatni yuksaltirishda beqiyos o'rin tutadi.

Inson o'zi qiziqib tanlagan sohaning ustasi bo'lsa, ongli hayot kechirish uchun zarur moddiy istaklar (rizq-nasiba butunligi, dasturxon to'kinligi, qulay shart-sharoit) va ma'naviy ehtiyoj (poklanish, hayotdan mazmun va halovat topish) uyg'unligiga erishadi. Istiqlol yillarida O'zbekistonda taraqqiyotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar xalqimizning ezgu intilishlari negizi – barkamol avlod orzusini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Turkiy xalqlar qadimiy madaniyatining jahon taraqqiyotidagi o'rni salmoqlidir. Xuroson, Movaraunnahr, Afrosiyob, So'g'diyona, Maroqand, Turon, Turkiston va boshqa joylar butun dunyoga mashhur bo'lib, tabarruk bu zaminda Ahmad Yassaviy, Al-Beruniy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy singari buyuk allomalar hamda Spitamen, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Sohibqiron Amur Temur va temuriyzodalardek jasur o'g'lonlar dunyoga keldilar. Ular o'z xalqining baxt-saodati, madaniyati uchun jisman va ma'nan kurashdilar. Shuning uchun ham jahon ahli ularning ezgu amallarini olqishlab, hanuz tabarruk zotlar deya o'z qalblarida muqaddas tutmoqdalar. Ular, ayniqsa yoshlarning tarbiyasiga, hunar va ilm olishiga katta e'tibor berganlar va bunga doimiy ravishda chaqirib keldilar.

Qadimda milliy an'ana bo'yicha shogirdlikning o'ziga xos odob-axloq qoidalari bo'lgan. Chunonchi, Husayn Voiz Koshifiy bunday deydi: "Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so'rasalar, yettita degin. Avvalo, o'z ishiga yaxshi munosabatda bo'lish, ya'ni

o‘z kasbini sevish; o‘z kasbiga e’tiqod qo‘yish va unga ishonish; ustoz oldida haqsevar bo‘lish, o‘z nojo‘ya odatlarini tark etish; ko‘rish lozim bo‘lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; eshitish mumkin bo‘lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; barcha noloyiq ishlardan qo‘l tortish; ustoziga zid bo‘lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Agar shogirdlikning asoslari nechta deb so‘rasalar, oltita degin: rostgo‘ylik, vafodorlik, mas’uliyatlilik, nasihatni quloqqa olish, ozor bermaslik, sir saqlash. Shogirdlikning eng yaxshi xislati nima deb so‘rasalar, poklik deb javob beriladi. Shogirdlikning noyob gavhari nima deb so‘rasalar, hamkasb do‘stlarni xushnud etish deb javob bergin”.

Binobarin, sog‘lom avlod tarbiyasi faqat jismoniy jihatdan chiniquqan, kamol topgan yoshlarnigina emas, shuningdek, sharqona axloq-odob va umumbashariy ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiya topgan insonni ham ko‘zda tutmog‘i lozim. Zero, buyuk alloma A.Avloniy ayganidek: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”.

An’anaviy ijrochilik san’atidan o‘rin olgan to‘rt hududiy uslublar, o‘zbek xalqining ijtimoiy turmush tarzidan kelib chiqqan holda davomiyligini saqlab kelmoqda. Jumladan, to‘y-marosim va urf-odatlarda bu an’analarimiz “Ustoz-shogird” an’anasida avloddan-avlodga o‘tib, saqlanib kelinmoqda. Ijrochilik sabog‘i an’anaga ko‘ra ustoz-shogird qabilida amalga oshirilgan. Odatda, har bir shogird ko‘p yillar davomida (ijrochilik sirlarini puxta o‘zlashtirguncha) o‘z ustoz tarbiyasida bo‘lgan. Soz chertish, ashula aytish, musiqiy merosni o‘rganish, davralarda o‘zini tutish kabi eng zarur jihatlarni mukammal o‘zlashtirgan shogird ustozlarning o‘ziga xos imtihonlaridan so‘ng mustaqil faoliyat ko‘rsatishga ijozat olganlar. Hayotda har bir sohani egallashda o‘ziga xos ruhiy, ishqiy, ilmiy-amaliy pog‘onalarni bosib o‘tish taqozo etiladi. Bu o‘rinda an’anaviy ijrochilikni o‘zlashtirish va mohirlikka erishish jarayonini ramziy ma’noda tasavvuf ta’limotiga xos insonning ma’naviy kamolotga erishish yo‘li asoslari bilan taqqoslab ko‘rish mumkin. Biz O‘rta Osiyo tasavvufining musiqa bilan hamnafas jihatlari misolida fikr yuritishni lozim ko‘rdik.

“Soʻfiylikka qadam qoʻygan har bir murid (yoki solih) Shariat, Tariqat, Haqiqat (baʼzan Maʼrifat-Haqiqat) kabi maqomlar silsilasidan oʻtishi lozim boʻlgan. Bunda shariat tushunchasi maʼlum diniy qonun-qoidalar majmuasi hamda soʻfiylikka boshlovchi dastlabki ruhiy holatni anglatgan. Bu holatni esa Tangriga boʻlgan ishq belgilaydi. Keyingi bosqich-tariqatda esa maʼlum xatti-harakatlar amalga oshirilishi koʻzda tutiladi. Tariqatda asosan 7 pogʻona mavjud boʻlib, ularni murid oʻz piri-murshidining yoʻl-yoʻriqlari asosida oʻtishi lozim boʻladi. Xuddi ana shu 7 pogʻona esa arab tilida “maqam”(maqom) deb ataladi. “Tariqat maqomlari” iborasi ham shu asosdan kelib chiqqandir. Tariqat bosqichining oʻzlashtirish zarur boʻlgan 7 pogʻonasi mavjud boʻlgani kabi, barcha sohalar, shu jumladan, ijrochilik ham ustoz-shogird sabogʻi jarayoni bilan bogʻliq va oʻrganish lozim boʻlgan qator amallardan iboratdir. Ijrochilikning barcha ichki va tashqi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda lozim boʻlgan amallarni quyidagicha yondoshish bilan izohlashga urinib koʻramiz:

1. Soʻz talaffuzi (sheʼriyatni bilish, kuy usuli va sheʼr vazni), yaʼni aruz ilmi;
2. Sozandalik sanʼatini egallash (cholgʻu ijrochiligi, talqin mahorati);
3. Xonandalik sanʼati (ovozdan toʻgʻri va oqilona foydalanish. Tovushqatorning har bir pardasida lozim va xos sayqal va jilo berishga erishish. Hamnafaslik.)
4. Joʻr boʻlish sanʼati (oʻz-oʻziga joʻr boʻlish, oʻzga xonandaga maʼlum cholgʻuda joʻr boʻlish va joʻrnavorlik).
5. Ijro sanʼati (har qanday shart-sharoitdagi ijro paytida oʻzni idora qila bilish, anʼanaviylik va badihagoʻylik imkoniyatlaridan foydalanish tartiblari, ijro vaziyatini toʻgʻri baholash).
6. Merosni oʻrganish (saboq, ogʻzaki anʼanadagi musiqa merosini oʻzlashtirish, uni ilmiy idroklash, mavjud anʼanaviy ijro uslublari bilan tanishish).
7. Talqin-tahlil, taqlid va talqin (mavjud anʼanalar bilan sugʻorilgan xususiy oʻziga xos talqin yaratish).

Ustoz-shogird anʼanalarida bu bilan birga odob-axloq, oʻzini tutish va amal qilish lozim boʻlgan yoki sharoit taqozo etadigan oʻziga xos “amal” lar mavjud. Ustoz-shogird va shogirdlarning saboq jarayoni haqida qator olimlarning fikr-mulohazalari mavjud.

Xususan, XV asrda Hirotida yashab ijod etgan, Sharqning mashhur allomalaridan biri, axloq, tarix, tasavvuf, nujum, riyoziyot kabi sohalarda samarali ijod etgan Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Futuvvatnomayi Sultoniyy" nomli risolasida bu jarayonning (so'fiylar ijodi-amali misolida) ko'p qoida nizomlarini, murid-murshid, pir-murid, ustoz-shogird amallarini yoritib bergan. Unda har bir tadbirning rukni, sujudi (sajdalari), farqi, intihosi, ma'nosi, odobi, axloqi, odati, shartlari, sarmoyasi, vazifasi, qonuni, ziynati, xislatlari, sifatleri kabi lozim bo'lgan o'nlab amallari haqida bayon etiladi. Ana shu manbaadan bir namud-shogirdlikning amallari haqida quyidagicha yozadi: "Agar shogirdlikning binosi nimani ustiga quriladi, deb so'rasalar, irodat ustida, deb javob bergin. Agar irodat nimadir, deb so'rasalar, samo' va toatdir, deb aytgin. Agar samo' (eshitish) va toat nimadir deb so'rasalar, nimaiki ustoz aytsa, uni jon qulog'i bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalda ado etishdir, deb ayt. Agar shogird uchun nima yaxshi, deb so'rasalar, pok e'tiqod deb ayt, chunki faqat e'tiqod kishini murodiga yetkazadi".

O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan. Musiqa ta'limi va tarbiyasi orqali yoshlarni komil inson etib tarbiyalash lozim, chunki musiqa ta'limi yoshlarni tarbiyalashda juda katta ta'sir etadi. Yoshlarni komil inson etib tarbiyalash eng avvalo tarbiyaga bog'liq.

Ustoz-shogirdlik an'anasi komil insonni tarbiyalash yo'lida munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, hozirgi vaqtda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish ommaviy madaniyatning zararli ta'siridan farzandlarimizning ongi- tafakkurini himoya qilishda ilm-u fan va madaniyat jamoatchiligi ijod ahlining o'rni tobora ortib bormoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi asosiy milliy teleradiokanallar ijtimoiy tarmoqlar aholining xolis va haqqoniy axborotga ega bo'lish huquqini ta'minlash yurtdoshlarimizning madaniy saviyasi bilim va dunyoqarashini oshirish, qadimiy an'analарimiz tarixiy merosimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu bilan birga, fuqarolarimiz ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lida munosib xizmat qilayotganini ta'kidlash kerak. Ayni vaqtda hali bu sohada amalga oshirishimiz zarur

bo‘lgan ko‘pgina masalalar turganini ham aytish lozim. Hozirgi davrda ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o‘z kelajagini o‘ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi his etmasligi mumkin emas. Shu sababli ham ommaviy axborot vositalarini zamon talablari asosida rivojlantirish matbuot va so‘z erkinligi prinsiplarini amalga ta‘minlashga erishish matbuotda tanqid ruhini kuchaytirish biz uchun eng muhim maqsadlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Uyda dutor, doira yoki boshqa cholg‘u asbobi bo‘lmagan musiqaning hayot baxsh ta’sirini o‘z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Eng muhimi bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodlarimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu masalada, ayniqsa, yoshlar qalbini o‘ziga har tomonlama jalb etadigan musiqa an’atining ahamiyati beqiyos ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz. Bunday natijalarga erishishda milliy umuminsoniy musiqa san’ati yutuqlarini eng yaxshi namunalarini o‘rganish bo‘yicha katta imkoniyatlar ochilgani bu soha rivojiga ko‘rsatilayotgan doimiy e’tibor yosh iste’dodlarning o‘zining namoyon etishi uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar muhim rol o‘ynamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.,
2. Ishoq Rajabov. Maqomlar. T., 2006
3. M.Qodirov. O‘zbek xalq tomosha san’ati, 1981;
4. Ibrohimov O. Maqom asoslari. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent:. “ nashriyoti, 2018.
5. Beknazar Do‘smurodov, Shavkat Matyoqubov. Xalq Hofizlari, 2011
6. D.Obidov “O‘zbek mumtoz musiqasining rivojlanish jarayonlari”
7. A.Xasanov. “Musika va estetik tarbiya” T., “O‘qituvchi” 1993 y
8. ”Buyuk siymolar, allomalar”. T-1995 y A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti
9. Soibjon Begmatov. Bastakorlar ijodi. Toshkent – «Niso poligraf» – 2017
10. Internet tarmoqlari